

MAQBUL QISHLOQ XO‘JALIK AMALIYOTI

Axmatov B.R., TerDU katta o‘qituvchisi, Ashurova T.T., TerDU talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbekistonda GLOBALG.A.P. xalqaro standarti talablari asosida ilk bor maqbul qishloq xo‘jalik amaliyoti bo‘yicha (G.A.P. – Good Agricultural Practice) davlat standarti ishlab chiqildi va tasdiqlanganligi hamda natijas mahalliy kompaniyalar jahon bozoriga chiqish uchun GLOBALG.A.P. xalqaro sertifikatini qo‘llash imkoniyatlari yaratilganligi haqida ma‘lumot keltirilgan.

O‘zbekistonda GLOBALG.A.P. xalqaro standarti talablari asosida ilk bor maqbul qishloq xo‘jalik amaliyoti bo‘yicha (G.A.P. – Good Agricultural Practice) davlat standarti ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Buning natijasida, mahalliy kompaniyalar jahon bozoriga chiqish uchun GLOBALG.A.P. xalqaro sertifikatini qisqaroq muddatda va arzonroq qiymatda olishlari mumkin.

GLOBALG.A.P. – bu yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining havfsizligini hamda ishlab chiqarish texnologik zanjirining zamonaviy sifat va texnika talablariga muvofiqligini ta‘minlashga qaratilgan e’tirof etilgan xalqaro standartlar tizimidir. Hozirgi vaqtda GLOBALG.A.P. tizimida dunyoning 124 mamlakatidan ziyod qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilari sertifikatlanganlar, sertifikatga ega xo‘jaliklar soni 180 mingdan ortiq bo‘lib, ularning 75% o‘simlikshunoslik mahsulotlari (sabzavot va mevalar)ga to‘g‘ri keladi.

Jahon bozoriga chiqish uchun oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilari mahsulotlari havfsiz sharoitda va ekologik talablar hisobga olingan holda yetishtirilganligiga kafolat berishlari kerak. Ular kimyoviy moddalarni qo‘llash me‘yorlariga amal qilishlari hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishlari, shuningdek, ishchilari va atrof-muhitga g‘amxo‘r munosabatda bo‘lishlari zarur.

Ko'plab xorijiy kompaniyalar uchun GLOBALG.A.P. sertifikatining mavjudligi - agromahsulot bilan savdo qilishning muhim shartlaridan biridir. Xalqaro chakana savdo tarmoqlari va supermarketlar, sifati xalqaro standartlar tomonidan tasdiqlangan mahsulotlarni xarid qilishga qiziqish bildirishadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarining bozorlarida kuzatilayotgan keskin raqobat sharoitida GLOBALG.A.P. sertifikatining mavjudligi, yetishtirilgan mahsulot barcha sifat talablariga mos kelishini tasdiqlaydi, bu o'z navbatida iste'molchilarning sodiqligini ortishi hamda savdolar o'sishiga xizmat qiladi.

GLOBALG.A.P. tizimini joriy etgan ishlab chiqaruvchi o'z mahsuloti uchun oshkoralik va mas'uliyatni namoyish etadi va bu sho'hrat ortishiga yordam berib, mahsulotning sotilish hajmini oshiradi.

Avvallari mahalliy qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilari o'z tovarlarini GLOBALG.A.P. standarti bo'yicha sertifikatlash uchun xorijiy kompaniyalarga murojaat qilishga majbur bo'lar edilar. Bugungi kunda esa GLOBALG.A.P. talablari asosida maqbul qishloq xo'jalik amaliyoti davlat standarti tasdiqlanishi tufayli mahalliy sertifikatlash organlari ham bu amaliyotni bajarishlari mumkin. Mazkur yangilik sertifikat olishga ketadigan moliyaviy harajatlar va vaqtni qisqartirib, ishlab chiqaruvchilar uchun to'lovni milliy valyutada amalga oshirishlariga imkon beradi.

GLOBALG.A.P. standartiga muvofiq bo'lish fermerlar uchun chet el bozorlariga chiqishni osonlashtirib, daromadni oshirish imkoniyatini beradi. Iste'molchilar sifatli va havfsiz agromahsulotni xarid qilishlari mumkin bo'lsa, agrokompaniyalarning xodimlari esa munosib mehnat sharoitlari bilan ta'minlanadilar. Bundan tashqari, GLOBALG.A.P. standarti qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilaridan o'z faoliyatlarida ekologik yondashuvni hamda atrof-muhitga nisbatan g'amxo'r munosabatda bo'lishni talab qiladi.

GLOBALG.A.P. xalqaro standartining meva-sabzavot mahsulotlarini sertifikatlashdagi asosiy talablari agrofirma va fermer xo'jaliklari yetishtirgan mahsulotlarining tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi

hamda eksport qiluvchilarning meva-sabzavot mahsulotlarini istiqbolli xalqaro bozorlarga olib chiqish shart-sharoitlarini yengillashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1.Botirova D., Nuritdinov K., GLOBALG.A.P. xalqaro standarti: meva va sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarishni sertifikatlash uchun asosiy talablar.

Amaliy qo`llanma. – Toshkent: Baktريا press, 2017. - 32 b.

2.www.globalgap.org, www.uz.undp.org